
Farg'ona shahar uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish bo'limining bildirishi

"Farg'ona" telekanali orqali joriy yil 3 sentyabr kuni Farg'ona shahridagi ayrim hududlarda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlarining qonaqarli olib borilmayotganligi to'g'risida lavha efirga uzatilgan.

Farg'ona shahar uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish bo'limi tomonidan ushbu ko'rsatuvda tilga olingan va umuman shahardagi boshqa shu kabi kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan aniq chora-tadbirlar belgiladi.

Jumladan, Farg'ona shahar Bobur mahallasi A.Qodiriy ko'chasida joylashgan ko'p qavatli 64, 70,72-uyning atroflari obodonlashtirilib, kuz-qish mavsumiga tegishli tayyorgarliklar ko'rildi. Shuningdek, barkamol mahallasi Yangi asr ko'chasi 130-uy va boshqa ko'p qavatli uylar atroflari obodonlashtirilib, markaziy issiqlik quvurlarini ta'mirlash ishlari amalga oshirildi.

Bu kabi ishlar davom ettirilmoqda.

2020-09-14 18:08:56